

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abduqodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукрова	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
Х.С.Шукрова	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishslashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 81'373.7:355

**"BOBURNOMA" NING UCH XIL TARJIMASIDA HARBIY HARAKATLARNI
IFODALOVCHI FE'LLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ВОЕННЫЕ
ДЕЙСТВИЯ, В ТРЕХ РАЗЛИЧНЫХ ПЕРЕВОДАХ "БАБУР-НАМЕ"**

**A COMPARATIVE ANALYSIS OF VERBS REPRESENTING MILITARY ACTIONS IN
THREE DIFFERENT TRANSLATIONS OF THE "BABURNAMA"**

Egamnazarov Jahongir Avaz o'g'li 

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Boburnoma" asarining uch xil tarjimasida (Erskin, Thackston, Beveridge) harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Tadqiqot davomida ushbu fe'llarning semantik va stilistik jihatdan tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchragani tahlil qilindi. Xususan, ba'zi fe'llarning to'g'ri va bevosita tarjima qilingani aniqlangan bo'lsa, ayrimlari ma'no kengayishi yoki qisqarishiga uchragan. Shuningdek, tarjimonlarning yondashuvlari turlicha bo'lib, Thackston harbiy terminlarni aniq va to'g'ri ifodalagan, Erskin ba'zan kengroq talqin qilgan, Beveridge esa ba'zi joylarda badiiy va erkin tarjimaga murojaat qilgan. Ushbu maqola tarixiy matnlarni tarjima qilishda harbiy terminlarning aniq va kontekstga mos ifodalanishining muhimligini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ глаголов, обозначающих военные действия, в трех различных переводах Бабур-наме (Эрскин, Тэкстон, Беверидж). В ходе исследования рассматривается, как эти глаголы изменяются с точки зрения семантики и стилистики в процессе перевода. Было установлено, что некоторые глаголы переданы точно, тогда как другие претерпели смысловые изменения или сокращения. Переводы различаются по подходу: Тэкстон наиболее точно передает военную терминологию, Эрскин иногда расширяет значение термина, а Беверидж использует более художественный и свободный стиль. Исследование подчеркивает важность точного и контекстуально адекватного перевода военной лексики в исторических текстах.

Abstract

This article provides a comparative analysis of verbs describing military actions in three different translations of Baburnama (Erskine, Thackston, and Beveridge). The study examines how these verbs undergo semantic and stylistic changes during translation. It was found that while some verbs were translated accurately, others experienced semantic shifts or reductions in meaning. The translators' approaches vary: Thackston provides the most precise rendering of military terminology, Erskine occasionally broadens the interpretation, and Beveridge adopts a more artistic and flexible translation style. This analysis highlights the importance of accurately conveying military terminology in historical texts while maintaining contextual relevance.

Kalit so'zlar: harbiy terminologiya, tarjima tahlili, Boburnoma, semantik tafovut, stilistik farq, harbiy fe'llar.

Ключевые слова: военная терминология, анализ перевода, Бабур-наме, семантические различия, стилистические отличия, военные глаголы.

Key words: military terminology, translation analysis, Baburnama, semantic differences, stylistic variation, military verbs.

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari harbiy yurishlar, siyosiy strategiyalar va shaxsiy kechinmalarga oid muhim tarixiy manbalardan biridir. Ushbu asarda harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llar jang maydonidagi holatlar, g'alaba va mag'lubiyat jarayonlarini aniq tasvirlashda asosiy rol o'ynaydi. Tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayonida harbiy terminlar va harakatlarni aks ettiruvchi fe'llarning to'g'ri va aniq ifodalanishi tarjimaning sifati va mazmuniy to'g'riliqiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada "Boburnoma" ning uch xil tarjimasida (Erskin, Thackston va Beveridge) harbiy harakatlarga oid fe'llarning qanday aks etgani qiyosiy tahlil qilinadi va tarjima jarayonida sodir bo'lgan semantik va stilistik o'zgarishlar o'rganiladi.

TILSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

"Boburnoma" harbiy jihatdan juda muhim tarixiy asarlardan biri hisoblanadi. Asarning muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoir va tarixchi, balki harbiy sarkarda sifatida ham tanilgan. Shu sababli, *Boburnomada* harbiy harakatlari, jang usullari, qo'shin tuzilishi va harbiy yurishlar batafsil bayon etilgan. Ushbu tadqiqotda "**Boburnoma**" asarining uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning **qiyyosiy tahlili** amalga oshirildi. Ushbu tarjimalar orasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llar ajratib olingen va ularning semantik va stilistik jihatlari o'rganilgan. Tadqiqotda harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning semantik o'zgarishlari, stilistik farqlari va tarjima jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar o'rganildi. Buning uchun **kontent tahlili** va **lingvistik metodlardan** foydalangan holda, har bir tarjimadagi muhim fe'llar solishtirildi. Shuningdek, fe'llarning asl ma'nosi va tarjimada qanday o'zgarishi ko'rib chiqildi. Misol uchun, "defeat" fe'l barcha tarjimalarda deyarli bir xil tarjima qilingan, ammo "scheme of conquest" kabi murakkab iboralarning turlicha yondashuvi o'rganildi.

MUHOKAMA

Harbiy harakatlarni aks ettiruvchi fe'llarning semantik jihatdan tahlili.

Bobur o'z asarida harbiy harakatlarni tavsiflashda ko'plab maxsus terminologik fe'llardan foydalangan. Masalan, *shikast bermoq* fe'l harbiy g'alabani anglatib, uchta tarjimada ham *defeat* shaklida berilgan. Ushbu tarjimalarda semantik farq deyarli sezilmaydi, chunki *defeat* so'zi *shikast bermoq* ma'nosini aniq aks ettiradi. Xuddi shuningdek, *olg'onda* fe'l barcha tarjimalarda *took* shaklida berilgan bo'lib, bu so'z *olmoq* ma'nosiga aniq mos keladi.

Biroq ayrim fe'llarning tarjima jarayonida semantik o'zgarishlarga uchragani kuzatiladi. Masalan, *mulkgirlilik dag'dag'asi* iborasi Erskin tarjimasida *scheme of conquest*, Thackston tarjimasida *bent on territorial expansion*, Beveridge tarjimasida esa *bent on conquest* tarzida berilgan. *Mulkgirlilik* so'zi "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'atda "mamlakat oluvchilik, hukumat suruvchilik" *dag'dag'a* esa o'zbek tilining izohli lug'atida "vahima yoki shovqin solib qilingan do'q, po'pisa" ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan. Demak, *mulkgirlilik dag'dag'asi* ushbu kontekstda qo'shni hududlarni istilo qilish orqali hududiy kengayishni ifodalaydi. Erskin tarjimasi bu iborani yanada kengroq tushuntirib, uni shunchaki harbiy ekspansiya emas, balki harbiy strategiya sifatida ifodalagan. Thackston va Beveridge tarjimalari esa bu iborani yanada qisqartirib, to'g'ridan-to'g'ri harbiy yurishlarga bog'lagan.

Shuningdek, *cherik tortmoq* fe'l barcha tarjimalarda *led an army* yoki *led his army* tarzida berilgan. Ushbu tarjimalarda semantik farq sezilmaydi, chunki *lead an army* iborasi harbiy yurishlarni boshlash, qo'shin bilan yurish ma'nosini aniq ifodalaydi.

Ittifoq qilmoq fe'lining tarjimalarida esa semantik noziklik mavjud. Erskin uni *concluded an alliance*, Thackston *made a pact*, Beveridge esa *came to an agreement* tarzida ifodalagan. Erskin va Thackston tarjimalari aniqroq bo'lib, diplomatik kelishuv haqida to'g'ri tasavvur uyg'otadi. Beveridge tarjimasi esa biroz umumiyoq bo'lib, harbiy kontekstni to'liq aks ettirmaydi.

Tarjimadagi stilistik farqlar

Harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning tarjimalarida ba'zan stilistik farqlar ham kuzatiladi. Masalan, *qilich tegurmoq* fe'l Erskin tarjimasida *exhibit distinguished prowess*, Thackston tarjimasida *wield the sword*, Beveridge tarjimasida esa *got to work with his own sword* tarzida berilgan. Erskin tarjimasi bu fe'lning ma'nosini kengroq tushuntirib, jangchi jasoratini ta'kidlagan. Thackston tarjimasi esa qisqa va aniq bo'lib, harbiy kontekstni yaxshi ifodalagan. Beveridge tarjimasi esa yanada erkinroq tarjima bo'lib, jang jarayonini jonlantirishga harakat qilgan.

Shuningdek, *urush qilmoq* fe'l barcha tarjimalarda *fight battles* tarzida berilgan. Bu erda hech qanday semantik yoki stilistik farq sezilmaydi, chunki bu ibora harbiy kontekstga aniq mos keladi.

Mag'lub bo'lmoq fe'l Erskin va Thackston tarjimalarida *be defeated*, Beveridge tarjimasida esa *be beaten* shaklida berilgan. *Be defeated* rasmiyoq bo'lib, tarixiy matnga mos keladi. *Be beaten* esa biroz norasmiyoq bo'lib, shaxsiyроq tus olgan.

Ilikka tushmoq fe'l Erskin tarjimasida *fell into the hands*, Thackston tarjimasida *be taken prisoner*, Beveridge tarjimasida esa *be made prisoner* tarzida berilgan. Erskin tarjimasi badiiyroq bo'lsa, Thackston va Beveridge aniqroq tarjima qilgan.

Yana bir e'tiborga molik fe'l *yaxshi bosmoq* bo'lib, bu fe'l harbiy kontekstda raqib ustidan yirik g'alabaga erishishni anglatadi. Erskin tarjimasida *give a severe defeat*, Thackston tarjimasida *beat*, Beveridge tarjimasida esa *give a good beating* shaklida berilgan. Thackston va Beveridge tarjimalari qisqa va sodda bo'lsa, Erskin tarjimasi mazmun jihatidan aniqroq va dushmanga jiddiy mag'lubiyat etkazilganligini ifodalay oladi. Beveridge esa norasmiy uslubga yaqin bo'lib, jangning dramatik jihatlarini kuchaytirgan.

Asir ayirmoq fe'l Erskin tarjimasida *recovered the prisoners*, Thackston tarjimasida *take back the prisoners*, Beveridge tarjimasida esa *separate prisoners* shaklida berilgan. Thackston tarjimasi matnga eng yaqin bo'lib, Beveridge tarjimasi esa semantik o'zgarishga uchragan.

NATIJALAR

Bu jadvalda fe'llarning har bir tarjimada qanday aks etganligi va ular orasidagi asosiy semantik tafovutlar batafsil bayon qilinadi.

O'zbekcha fe'l	Erskin tarjimasi	Thackston tarjimasi	Beveridge tarjimasi	Semantik tahlil
Shikast bermoq (mag'lub etmoq)	<i>defeat</i>	<i>defeat</i>	<i>defeat</i>	Tarjimada hech qanday farq yo'q. Ular original ma'noni to'g'ri aks ettirgan. Biroq, <i>defeat</i> neytral so'z bo'lib, jangning qanchalik halokatli bo'lgani haqida tasavvur bermaydi.
Olg'onda (olmoq, egallamoq)	<i>took</i>	<i>took</i>	<i>took</i>	O'zbek tilida bu so'z harbiy istilo ma'nosida ishlatilgan, lekin tarjimalar bu nuqtani kuchaytirmagan. <i>Conquered</i> yoki <i>seized</i> kabi so'zlar aniqroq bo'lardi.
Mulkgirlilik dag'dag'asi (yerlarni egallash istagi)	<i>scheme of conquest</i>	<i>bent on territorial expansion</i>	<i>bent on conquest</i>	Erskin "conquest" tushunchasini "scheme" (reja) orqali ifodalagan. Thackston bu harakatni faqat hududiy kengaytirish bilan bog'lagan. Beveridge esa to'g'ridan-to'g'ri "conquest" (istilo) deb bergan.
Cherik tortmoq (qo'shin bilan yurish)	<i>led an army</i>	<i>led his army</i>	<i>led an army</i>	Thackston qo'shin kimga tegishli ekanligini aniqroq ko'rsatgan. Erskin va Beveridge neytralroq yondashgan. <i>Marched with his army</i> yoki <i>launched a military campaign</i> kabi ifodalar aniqroq bo'lardi.
Ittifoq qilmoq (kelishuv tuzmoq)	<i>concluded an alliance</i>	<i>made a pact</i>	<i>came to an agreement</i>	Erskin rasmiyoq ohangda bergen. Thackston "pakt" degan qisqaroq so'zdan foydalangan. Beveridge esa umumiyoq ishlatgan. "Alliance" (ittifoq) eng mos keladigan variant.
Qilich tegurmoq (jang qilish)	<i>exhibit distinguished prowess</i>	<i>wield the sword</i>	<i>got to work with his own sword</i>	Erskin "jasorat ko'rsatdi" deb kengaytirgan. Thackston to'g'ridan-to'g'ri "qilich bilan jang qilish" deb bergen. Beveridge esa badiiy ifoda qo'shgan. Thackstonning talqini aniqroq.
Urush qilmoq (jang qilish)	<i>fight battles</i>	<i>fight battles</i>	<i>fight battles</i>	Tarjimalar bir xil

TILSHUNOSLIK

Mag'lub bo'lmoq (yutqazmoq)	<i>be defeated</i>	<i>be defeated</i>	<i>be beaten</i>	Erskin va Thackston rasmiy uslubda, Beveridge esa norasmiyoq ishlatgan. <i>Suffer defeat</i> qo'llanilishi mumkin.
Ilkka tushmoq (asir bo'lmoq)	<i>fell into the hands</i>	<i>be taken prisoner</i>	<i>be made prisoner</i>	Erskin badiiyroq ishlatgan. Thackston va Beveridge aniq harbiy kontekstda ifodalagan.
Yaxshi bosmoq (katta g'alaba qozonmoq)	<i>give a severe defeat</i>	<i>a beat</i>	<i>give a good beating</i>	Erskin "severe defeat" (katta mag'lubiyat) deb kuchaytirgan. Beveridge norasmiyoq yondashgan. Thackston esa juda soddalashtirgan.
Asir ayirmoq (asirlarni ozod qilish)	<i>recovered the prisoners</i>	<i>take back the prisoners</i>	<i>separate prisoners</i>	Beveridge "separate" (ajratmoq) so'zini ishlatib, ma'noni o'zgartirgan. Erskin va Thackston aniq ifodalagan.

XULOSA

Ushbu tahlil "*Boburnoma*" tarjimalarida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qanday aks etganini ochib beradi. Quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. **Thackston tarjimasi** harbiy kontekstni eng aniq va mantiqiy aks ettingani sababli, eng sifatli tarjima sifatida baholanishi mumkin.
2. **Erskin tarjimasi** ba'zi joylarda tarixiy voqealarni to'g'ri etkazgan bo'lsa-da, ba'zan terminlarni kengroq tushuntirishga harakat qilgan.
3. **Beveridge tarjimasi** ba'zi joylarda norasmiyoq yoki badiiyroq bo'lib, harbiy kontekstni biroz o'zgartirgan.

Shunday qilib, tarixiy matnlarni tarjima qilishda harbiy terminologiyaning to'g'ri va aniq ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. "*Boburnoma*"ning tarjimalaridagi farqlar tarjima uslubiga bog'liq bo'lib, har biri turli auditoriyalar uchun mos kelishi mumkin. Tarixiy matnlarning kelajakdagi tadqiqotlarida ushbu tarjimalarning qiyosiy tahlili yanada chuqurroq o'rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beveridge, A. (Trans.). (1921). *Memoirs of Babur*. London: Luzac & Co.
2. Bobur, Z. M. (1996). *Baburnama* (W. Thackston, Trans.). Oxford University Press.
3. Bobur, Z. M. (1826). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor* (J. Leyden & W. Erskine, Trans.). London: Longman.
4. Bobur, Z. M. (2002). *Boburnoma*. Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
5. G'afurov, M. (Ed.). (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati* (5 jildlik). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
6. Ishoqov, F. (2008). "*Boburnoma*" uchun qisqacha izohli lug'at. Andijon: Andijon nashriyot-matbaa OAJ.
7. Teshaboyeva, Z. (2024). "*Boburnoma*"dagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalari qiyosi.

Toshkent: O'zbekiston til va madaniyat. ISSN 2181-922X